

**"KAPITALBANK"
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI**

**2021-yil 21-iyunda Bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi
o'tkazilishini e'lon qiladi**

HURMATLI AKSIYADORLAR!

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi quyidagi manzilda bo'lib o'tadi:

Toshkent shahri, Maxtumquli ko'chasi, 1. "Kapitalbank" ATB Yashnobod filiali binosida. Elektron pochta: info@kapitalbank.uz, veb-sayt: www.kapitalbank.uz.

Ro'yxatdan o'tishning boshlanishi - soat 10:30 da.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi boshlanishi - soat 11:00 da.

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxati 2021-yil 15-iyun holatiga ko'ra bank aksiyadorlari reestriga muvofiq tuziladi.

Kun tartibi:

- 1. "Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi Tartibni tasdiqlash to'g'risida.**
- 2. "Kapitalbank" ATB Kuzatuv kengashi raisining 2020-yil uchun "Kapitalbank" ATB Kuzatuv kengashi faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotini ko'rib chiqish va "Kapitalbank" ATB Kuzatuv kengashining 2020-yilda qabul qilingan qarorlarini tasdiqlash to'g'risida.**
- 3. Bank Boshqaruvi Raisining 2020-yil uchun "Kapitalbank" ATB moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash to'g'risida.**
- 4. Bankning 2020-yilgi moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga ko'ra "Kapitalbank" ATB Taftish komissiyasining xulosasini ko'rib chiqish to'g'risida.**
- 5. "Kapitalbank" ATBning 2020-yilgi moliyaviy hisobotining ishonchliligi to'g'risida auditorlik xulosasini tasdiqlash to'g'risida.**
- 6. "Kapitalbank" ATB ning 2020-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, buxgalterlik balansi va foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash to'g'risida.**
- 7. "Kapitalbank" ATBning 2020 yilgi moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga ko'ra sof foydani taqsimlashni tasdiqlash to'g'risida.**
- 8. Kutilmagan holatlar hisobida hisobga olingan umidsiz aktivlarni va boshqa qarzlarni hisobdan chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash to'g'risida.**
- 9. 2021-moliyaviy yil uchun auditorlik tashkilotini tasdiqlash va auditorlik xizmatlari uchun to'lovlarning maksimal miqdorini belgilash to'g'risida.**
- 10. Xayriya, beg'araz va homiylik yordamining chegaraviy miqdorini belgilash masalasini ko'rib chiqish to'g'risida.**
- 11. "Kapitalbank" ATB Taftish komissiyasi a'zolarini saylash to'g'risida.**
- 12. "Kapitalbank" ATB Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash to'g'risida.».**

Eslatma: Aksiyadorning Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidagi vakili vakil to'g'risidagi ma'lumotlarni (ismi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan joyi, pasport ma'lumotlari) ko'rsatilgan holda yozma ravishda tuzilgan ishonchnoma asosida harakat qiladi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma ushbu yuridik shaxsning muhri ilova qilingan holda rahbar imzosi uchun beriladi.